

## WEB DASTURLASHGA ASOSLANGAN AMALIY TIZIMLAR

**Sulaymonova Dilnoza Bahodir qizi**

(*Muxammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Qarshi filiali “Axborot texnologiyalarining dasturiy ta'minoti” kafedrasi o'qituvchi - stajyor*)

**Axatova Zilola Bahodirovna**

(*Qarshi Muhandislik Iqtisodiyot Instituti talabasi*)

**Annotation:** *In this article, we will try to weigh the unique aspects, advantages and disadvantages of Web programming and Mobile programming directions one by one.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Web dasturlash va Mobil dasturlash yo'nalishlarining o'ziga xos jihatlari, foydali tomonlari va kamchiliklarini birma-bir tarozi pallalariga qo'yishga urinib ko'ramiz.*

**Аннотация:** В этой статье мы попытаемся поочередно взвесить уникальные аспекты, преимущества и недостатки направлений веб-программирования и мобильного программирования.

**Key words:** *Web, Android, iOS, BlackBerry OS, Bada, HTML, WWW*

**Kalit so'zlar:** *Web, Android, iOS, BlackBerry OS, Bada, HTML, WWW*

**Ключевые слова:** *Web, Android, iOS, BlackBerry OS, Bada, HTML, WWW*

Dasturchilik sohasiga endi kirib kelayotgan, hozircha aniq bir yo'nalishni tanlab olmagan o'rghanuvchilar uchun web yoki mobil yo'nalishdagi dasturchilikning birini tanlash masalasi uzoq o'ylashga majbur qiluvchi mavhum jumboq bo'lishi mumkin. «Web dasturlashni oson o'rghanish mumkinmi, yoki mobil dasturlash sohasiga tezroq kira olamanmi?», «Mobil dasturlash orqali ko'proq pul ishlash mumkinmi, yoki web dasturlashdagi ishlar uchun ko'proq to'lashadimi?», kabi savollar u yoki bu yo'nalishni tanlab olmagan yosh o'rghanuvchilarni qiynashi tabiiy. Ushbu maqolada Web dasturlash va Mobil dasturlash yo'nalishlarining o'ziga xos jihatlari, foydali tomonlari va kamchiliklarini birma-bir tarozi pallalariga qo'yishga urinib ko'ramiz.



Web va mobil texnologiyalar asosida dasturlash bugungi kunda har qachongidan ham ko'ra jadalroq rivojlanayapti. Web texnologiyalar hayotning turli jabhalariga qanchalik chiqur kirib borib, qanchalik ko'p dasturchilar orasida mashxur bo'layotgan bo'lsa, mobil texnologiyalar ham huddi shu ko'rsatkich bilan ommalashib, ixtisoslashgan dasturchilar doirasini kengaytirib bormoqda. Dasturchilik sohasiga endi kirib kelayotgan, hozircha aniq bir yo'nalishni tanlab olmagan o'rganuvchilar uchun web yoki mobil yo'nalishdagi dasturchilikning birini tanlash masalasi uzoq o'ylashga majbur qiluvchi mavhum jumboq bo'lishi mumkin. «Web dasturlashni oson o'rganish mumkinmi, yoki mobil dasturlash sohasiga tezroq kira olamanmi?», «Mobil dasturlash orqali ko'proq pul ishlash mumkinmi, yoki web dasturlashdagi ishlar uchun ko'proq to'lashadimi?», kabi savollar u yoki bu yo'nalishni tanlab olmagan yosh o'rganuvchilarni qiynosti tabiiy. Ushbu maqolada har ikki yo'nalishning o'ziga xos jihatlari, foydali tomonlari va kamchiliklarini birma-bir tarozi pallalariga qo'yishga urinib ko'ramiz.

Web dasturlash haqida.

Siz bilan Web dasturlash nima ekanligi bilan qisqacha tanishib chiqdik. Endi hozir siz bilan Frontend haqida qisqacha tanishib chiqamiz



Avvalo "frontend" va "backend" so'zlarining o'zbek tilidagi ma'nolari bilan tanishib chiqaylik. "Frontend" (front end, front-end) o'zbek tilida "Oldindagi (ustki) tomon" degan ma'noni anglatadi. Biz bu so'z bilan u yoki bu narsaning tashqi, hammaga ko'rinish turadigan qismini nazarda tutamiz. Backend (back end, back-end) esa Frontendning aksi hisoblanib, qaysidir narsaning ichki, yoki orqa tomoni degan ma'noni anglatadi. Bu bilan biz qaysidir narsaning hammaga ko'rinxaymaydigan, yashiring, ichki yoki orqa tomonini nazarda tutgan bo'lamicha.

Frontend - Bu o'zi nima va yuqoridagi gaplarga buning nima bog'liqligi bor?» dersiz, bu savolningizga ushbu maqolada javob topasiz degan umiddamiz.

Frontend - «tashqi interfeys degan ma'noni bildirib, veb texnologiyalarning biridir. Bu texnologiya yordamida veb sahifalarning insonga ko'rinish turuvchi, ma'lumot beruvchi vizual qismi yaratiladi. Frontend texnologiyalarini o'rgangan inson o'z ijodkorligi, kreativ yondoshuvi orqali turli g'oyalarini veb sahifalar, dasturlar shaklida ro'yobga chiqarishi mumkin bo'ladi.

Bugungi kunda shaxsiy veb sahifaga ega bo'lish o'ziga xos elektron vizitka, passport vazifasini bajaribgina qolmay, balki sayt orqali ko'plab foydali ishlarni amalga oshirish

mumkin bo'lib qoldi. Masalan, jurnalist, shoir, yozuvchi o'z ijodi va izlanishlarinini veb sahifasi orqali yoritib borishi mumkin. Tadbirkor o'z sahifasida mahsulot va xizmatlarini keng targ'ib qilishi va daromadini oshirishi mumkin.

Umumiy qilib aytadigan bo'lsak Frontend texnologiyalarini o'rganish - internet xazinasining kalitini qo'lga kiritish demakdir, bu xazinadan xohlagan narsangizni olishingiz, foydalanishingiz, boshqarishingiz mumkin.



Agar brauzer orqali foydalanish mumkin bo'lgan tizimlar, dasturlar va saytlarni yaratishga qiziqsangiz, web dasturchilik sohasini tanlaganingiz ma'qul. Web hozirgi zamonaviy dunyoda tobora chegara bilmas texnologiyalardan biriga aylanib borayapti. Web yordamida oddiy saytlarni tayyorlash qanchalik osonlashgan bo'lsa, tasavvur qilishingiz mumkin bo'lgan o'ta qiyin tizimlarni yaratish ham shu qadar imkonli bo'lib bormoqda.

Mobil texnologiyalarda foydalanuvchi juda ko'p. Zamonaviy qurilmalarning ko'payishi bilan foydaluvchilar sonining kelajakda ortishi ham tabiiy. Mobil dasturchilarga ehtiyoj esa talab asosida ortib boraveradi. Webga nisbatan ancha yosh hisoblangan mobil texnologiyalar o'zining jadal rivojlanishi va sifatga bo'lgan talabini tez o'zgartirib borayotganligi bilan dasturchilar oldiga yangidan-yangi vazifalarni qo'yemoqda. Mobil va web texnologiyalarni qaysi biri kuchli yoki qaysi biri kuchsiz, degan asosda solishtirib bo'lmaydi. Mobil texnologiyalarning katta qismida web texnologiyalarda foydalanishadi. Aksincha, web texnologiyalarning ko'pchilik holatlarda mobil texnologiyalarga ehtiyoj seziladi. Bu esa har ikki texnologiyaning bir-biridan ajratib bo'lmasligini anglatadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, o'zingizni qiziqishingizga mos dasturlash tilini o'rganing va kelajagingizni dasturlash bilan quring. Hozir boshlashdan yaxshisi yo'q. Har kuni web dasturchilar uchun minglab yangi ishlar e'lon qilinadi va bular doimiy o'sib bormoqda. Web dasturlash oson emas va bu hamma uchun ham emas. Web dasturlashni o'rganish vaqt talab etadi va siz oson narsalardan boshlab yaxshilab tushunib borishingiz kerak.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.<https://aim.uz/>
- 2.<https://google.ru/>
- 3.«INFORMATIKANI O'QITISH METODIKASI» fanidan o'quv metodikasi Alaminov M. Nukus-2016.